INKLYUZIV, UY TA'LIMI VA "MEHRLI MAKTAB"LAR O'QUV-RIVOJLANISH JARAYONIDA AKT DAN FOYDALANISH

CHDPU Maxsus pedagogika: surdotarjimonlik
faoliyati yo'nalishi 3-bosqich talabalari

Tajimuratov Amangegldi Asad ogli

amangelditajimurotov2005@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Ibadullayeva Sharofat Nurullayevna**

sharofatibadullayeva1984@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim, uy ta'limi va "Mehrli maktab"larda o'quv-rivojlanish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda AKT vositalari yordamida alohida ehtiyojli bolalarning ta'limga qamrab olinishi, ularning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash masalalari tahlil qilinadi. Multimedia resurslari, interaktiv platformalar va masofaviy ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, AKT yordamida o'quvchilarning kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, uy ta'limi, Mehrli maktab, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, AKT, multimedia, interaktiv ta'lim, masofaviy ta'lim, alohida ehtiyojli bolalar.

Аннотация:В данной статье рассматривается значение использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в учебно-развивающем процессе инклюзивного образования, домашнего обучения и школ «Mehrli maktab». Анализируется роль ИКТ в расширении образовательных возможностей детей с особыми потребностями и поддержке их индивидуального развития. Особое внимание уделяется мультимедийным ресурсам, интерактивным платформам и технологиям дистанционного обучения, которые делают учебный процесс более эффективным и доступным. Также обосновывается развитие когнитивных, коммуникативных и социальных навыков учащихся с помощью ИКТ.

Ключевые слова:Инклюзивное образование, домашнее обучение, Mehrli maktab, информационно-коммуникационные технологии, ИКТ, мультимедиа, интерактивное обучение, дистанционное обучение.

Abstract: This article discusses the importance of using information and communication technologies (ICT) in the educational and developmental process of inclusive education, home education, and "Mehrli maktab" schools. It analyzes how ICT tools expand educational opportunities for children with special needs and support their individual development. Special attention is given to multimedia resources, interactive platforms, and distance learning technologies, which make the learning process more effective and accessible. The study also highlights the role of ICT in developing students' cognitive, communicative, and social skills.

Keywords: Inclusive education, home education, Mehrli maktab, information and communication technologies, ICT, multimedia, interactive learning, distance education.

Kirish Ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 - 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.1 "Inklyuziv ta'limda o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Fan "Inklyuziv ta'lim" sohasining fundamental nazariy asoslarini, ilmiy-uslubiy yondoshuvlarni egallanilishini nazarga tutganligi sababli mazkur kursda ta'lim berishning ham an'anaviy usullari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalaniladi. Jumladan, qisqa hajmli ma'ruzalar, aqliy xujum usuli, guruhlarda ishlash, guruhiy namoyishlar, individual tahlilni amalga oshirish; keys-stadi, ya'ni ijtimoiy hayotdan keltirilgan vaziyatlarni modellashtirish orqali rolli ijro etish hamda uni muhokama etish, pover-point namoyish hamda ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslariga mos darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlardan foydalaniladi

Asosiy qism:

U yoki bu funksional cheklanishlari bo'lgan bolalarning ta'limiy ehtiyojlari juda ham xilma – xil. Ular bir tomondan, o'zlarining sog'lom tengdoshlari bilan bir xil bilimlar olish ehtiyojiga egalar. Boshqa tomondan esa, ularda boshqa (ko'pincha alohida ta'lim ehtiyojlari deb belgilanadigan), funksional chekinishlar bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlar ham bor bo'lib, ular o'quv jarayonida odatdagi ta'lim metodlaridan foydalanish imkoniyatini bermadi. Shu munosabat bilan bolalarning har turli toifalarining individual ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan AKTlardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

O'quv jarayonida AKTlardan foydalanishning afzalliklari yangi texnologiyalarning kommunikatsiya va o'zaro faoliyat jarayonini yo'lga qo'yishga, ta'lim resusrlaridan eng qulay shaklda foydalanish imkonini berishga, hamda motivatsoani oshirishga yordam berishi bilan bog'liq.

AKTlarni inklyuziv ta'limda qo'llash sohalari juda ham xilma – xil bo'lishiga qaramay, ulardan foydalanishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Kompensator (o'rnini bosish) masalalarini hal etish uchun AKTlar;

- Didaktik masalalarni hal etish uchun AKTlar;

- Kommunikativ masalalarni hal etish uchun AKTlar;. Bunday yondashuvni hisobga olgan holda AKTlarning o'quv jarayonidagi rolni shu asosiy kategoriyalarga muvofiq bayon qilinadi.

- Kompyuterlar bolalarning avtonomligini va ta’lim olish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi;

- Alohida ta’limiy ehtiyojlari bo‘lgan bolalar topshiriqlarni o‘zining o‘quv faoliyati maromida bajara oladilar;

- Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘zlarining ko‘radigan tengdoshlari bilan bir qatorda internetdan foydalanish imkoniyatini oladilar;

- Ixtisoslashtirilgan qurilmalar va dasturlar kommunikatsiyada qiyinchiliklari bo‘lgan bolalar orasidagi, ularning tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan o‘zaro munosabatni yengillashtiradi;

- Kommunikatsiyaning texnika vositalaridan foydalanish bolalarni maktabda ham, jamoatda ham yoqimli imidjni hosil qiladi;

- Bolalarning AKTlarga ishonchi ularning uy vazifalarini tayyorlash va boshqa ehtiyojlari uchun internetdan foydalanishlariga yordam beradi. Va shu bilan birga AKTdan foydalanish faqat alohida ta’lim ehtiyoji bor bolalarga emas balki o‘qituvchi va pedagoglar uchun ham sifatli afzalliklarga ega bo‘lib, ular:

- AKTlardan foydalanish inklyuziv ta’limda ishlayotgan pedagoglarning hamkasblari bilan munosabatda bo‘lishlariga imkoniyat yaratib, ularning ajralib qolishlarini kamaytirishga yordam beradi;

- Real vaqt rejimida kommunikatsiyani amalga oshirish imkoniyati o‘z kasbiy faoliyatini anglashning, ya’ni refleksiyaning rivojlanishiga yordam beradi;

- AKTlardan foydalanish pedagoglarning kasbiy ko‘nikmalarini takomillartiradi;

- Texnologiyalarni tengdoshlari bilan munosabatlar jarayoniga qo‘shish ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi;

- Axborot resurslarining electron shakli ta’limdan foydalanish imkoniyatini jiddiy ravishda oshiradi.

Inklyuziv ta’limda AKTlarni qo‘llash juda kata imkoniyatlarga ega, lekin bu yo‘lda ko‘p qiyinchiliklar mavjud, yangi texnologiyalar ta’lim tizimining an’anaviy tartibini o‘zgartirib, alohida ehtiyojli bolalar ta’limidagi ilgari passiv yondashuvlarga nisbatan munosib alternativlarni ilgari suradi. Mavjud shubhasiz afzalliklariga qaramay, agar ularni bolalarning individual ehtiyojlarini va ta’lim resusrlaridan foydalanish imkoniyati tamoyillarini hisobga olmagan holda qo‘llanilsa, bunday texnologiyalar ta’limga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Xulosa

Yangi texnologiyalar bolalarni o‘quv jarayonida faol ishtirok etishiga imkon beradi. Masalan, harakat nuqsonlari bo‘lgan holda AKT yozish imkonini beradi, ko‘rish nuqsonlari bo‘lgan holda esa, o‘qish jarayonini amalga oshirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, texnologiyalar bolalarning o‘z atrof - muhitlarini boshqarish, o‘quv va ijtimoiy masalalar yechimini qo‘llab quvvatlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, hamda axborot resusrlaridan foydalanish imkonini beradi. Boshqachasiga aytganda, texnologiyalar organizmning tabiiy funksiyalaridagi

yetishmovchiliklarining o‘rnini bosish (kompensatsiyalash) imkoniyatini beradi va shu bilan bilan birga bolalar tomonidan bilimlarni olish va o‘zlashtirish jarayonlarini optimallashtiradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 1.Usmanovna, Q. F., Azamkulovna, P. D., & Maxkamovna, M. D. (2022). INKLYUZIV TA’LIMDA KADRLAR MASALASI. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 834-842.
2. 2.Azamkulovna,P.D.(2022). BO‘LAJAK O ‘QITUVCHI-DEFEKTOLOGLARGA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI OLIB BORISHNI O‘RGATISH KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIK KO ‘RISH OMILI SIFATIDA. Scientific Impulse, 1(5), 413-418.
3. 3.Pulatova, D., & Boboxonova, M. (2023). AKTDAN FOYDALANISH JARAYONIDA O‘QITUVCHI IMKONIYATLARINI MAKTAB O‘QUVCHILARI, TALABALAR VA O‘QITUVCHILARNI AXBOROT BILAN TA'MINLASH. Академические исследования в современной науке, 2(12),78-86.
4. 4.Usmanovna, Q. F. Azamkulovna, P. D. (2022) INKLYUZIV TA’LIM: NAZARIYA VA AMALIYOT. “Yangi chirchiq book”,Ch.2022
5. 5. https://kompy.info/inklyuziv-talim-jarayonida-akt-dan-foydalanish.html.
6. **References**
7. Usmanovna, Q. F., Azamkulovna, P. D., & Maxkamovna, M. D. (2022). “Personnel Issues in Inclusive Education.” *Journal of Interdisciplinary Innovations and Scientific Research in Uzbekistan*, 2(14), 834–842.
8. Azamkulovna, P. D. (2022). “Teaching Future Defectologist Teachers to Conduct Research Activities as a Factor of Professional Training.” *Scientific Impulse*, 1(5), 413–418.
9. Pulatova, D., & Boboxonova, M. (2023). “Providing Information to School Students, University Students and Teachers Through the Use of ICT.” *Academic Research in Modern Science*, 2(12), 78–86.
10. Usmanovna, Q. F., & Azamkulovna, P. D. (2022). *Inclusive Education: Theory and Practice.* “Yangi Chirchiq Book”, Chirchiq.
11. *Use of ICT in Inclusive Education Process.* Retrieved from: https://kompy.info/inklyuziv-talim-jarayonida-akt-dan-foydalanish.html